

LEKSIK DERIVATSIYA XUSUSIDA AYRIM QAYDLAR

Karimov Ilhom Tursunovich

Zarmed Universiteti ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola zamonaviy tilshunoslikdagi leksik derivatsiyaning so'z yasalishidan farqi va o'xshashliginin tahlil qiladi. Derivatsiya hodisasining jahon va o'zbek lingvistikasida rivojlanishini ko'rib chiqadi va misollar yordamida so'zlarning yasalish jarayonini yangicha yondashuv bilan o'rganadi.

Kalit so'zlar: Leksik derivatsiya, leksema, semasiasos, so'z yasalishi, derivatologiya, sintaktik aloqa, affiks, operand, operator, derivat, verbalizator, nominalizator, adyektivator, adverbializator.

Asos qismdan ma'lum bir yasovchi vosita yordamida u bilan mazmuniy bog'liq bo'lgan yangi leksema hosil qilinishi leksik derivatsiya hisoblanadi. Masalan, temir asosidan -chi yasovchi vosita yordamida temirchi leksemasi hosil qilinadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da temir va temirchi alohida-alohida leksemalar sifatida izohlangan [1]. Temir va temirchi leksemalari o'rtasida motivatsiya munosabati bo'lib, yasama leksema semasiasos leksemaning markaziy semasiga asoslanadi, shu sema yasama leksemaning mazmuniy mundarijasida saqlanadi. Temirchi "temir bilan shug'ullanuvchi shaxs" ma'nosini ifodalaydi.

Shu narsa e'tiborga molikki, Mahmud Koshg'ariy so'z yasalishi hodisasini o'rgangan birinchi turkolog olimdir. N.Turniyozov bu xususda quyidagilarni ta'kidlaydi: "U (Mahmud Koshg'ariy – Sh.A.) o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida so'z yasalishi masalasiga qayta-qayta to'xtalganini ko'ramiz. Bu jarayonda otdan ot, fe'ldan ot, fe'ldan sifat yasalishi qoidalari mukammal izohlab beriladi»[2]

Endi olimning o'ziga murojaat etamiz: "Otlar ikki turlidir: yasama ot va tub ot. Fe'llardan yasalgan otlar fe'l oxiriga o'n ikki harfdan birini qo'shish bilan yasaladi. Qilich, oq kabi otlar tub otlardir. Bu xil otlar boshqa so'zlardan kelib chiqmagan, yasama otlar boshqa so'zlardan kelib chiqadi" [3].

Akademik A.Hojiyev hozirgi o'zbek tilida so'z yasalishi hodisasi haqida qimmatli fikrlar berganligi izoh talab qilmaydi. Olim bu haqda quyidagilarni qayd etadi: "So'z yasalishi strukturasida ham ikki komponent ajratiladi: 1) so'z yasalish asosi; 2) so'z yasovchi affiks (yoki formant). Masalan, unumdorlik so'zining so'z yasalishi strukturasida unumdor-lik; unumdor so'zining so'z yasalish strukturasida unum+dor; unum so'zining so'z yasalish strukturasida un+um" [5].

Bu xususda so'z yuritganida P.A.Soboleva so'zning operator tirkaladigan qismini obyekt ma'nosidagi simvol O bilan belgilaydi. Mazkur simvolga qo'shiladigan operatorlarni R₁– verbalizator, R₂– nominalizator, R₃– adyektivator, R₄– adverbializator vazifalarida qo'llanadigan o'ta faol vosita sifatida izohlaydi [6]. Ko'rinadiki, har bir simvol yasama so'zni shakllantiruvchi operator xarakterini aks ettiradi. Boshqacha aytganda, R₁–verbalizator fe'l yasovchi, R₂– nominalizator ot yasovchi, R₃– adyektivator sifat yasovchi, R₄– adverbializator ravish yasovchi operatorlarni ko'rsatadi.

Ko‘rinadiki, leksik derivatsiya qonuniyatlari sintaktik hamda morfologik derivatsiyanikidan farq qiladi. Morfologik derivatsiya tamoyillari esa qilinajak ishlarining alohida mavzusi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild. – M.,1981. – B. 158-159.
2. Turniyozov N.Q. Mahmud Koshg‘ariy va hozirgi tilimizda so‘z yasalishi hodisasi haqida//Xorijiy filologiya, №3, 2014. – B. 8.
3. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent, 1976. – B. 50.
4. O‘zbek sovet ensiklopediyasi (1-jild). – Toshkent, 1971. – B. 250.
5. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi. –Toshkent, 1989. – B.10.
6. Соболева П.А. Моделирование словообразования //Проблемы структурной лингвистики – 1971. –М., 1972. –С.171.